

QOBILIYAT**Sodiqova Durдона Sobirjon qizi****Chirchiq davlat pedogogika universiteti****Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti****Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-kurs 25/3-guruh talabasi****durdonas574@gmail.com****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Psixologiya kafedrası o'qituvchisi****Ilmiy rahbar: Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li****olimjonozodqulov30@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17894146>****Annotatsiya**

Ushbu maqolada shaxsning psixologik xususiyati bo'lgan qobiliyat tushunchasi, uning turlari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritib berilgan. Qobiliyatlarning rivojlanish jarayoni, ularning tug'ma va orttirilgan jihatlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muhim pedagogik vazifa ekanligi asoslangan. Shuningdek, qobiliyatning bilim va ko'nikmalar bilan bog'liqligi izohlangan. Maqolada amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: Qobiliyat, iste'dod, layoqat, bilim, ko'nikma, malaka, rivojlanish, pedagogik faoliyat, individual yondashuv.

Annotation: This article discusses the concept of ability, which is a psychological characteristic of a person, its types and importance in the educational process. The process of development of abilities, their innate and acquired aspects are analyzed on a scientific and theoretical basis. It is based on the fact that identifying and developing students' abilities in primary education is an important pedagogical task. The relationship of abilities with knowledge and skills is also explained. The article also provides practical recommendations.

Keywords: Ability, talent, competence, knowledge, skills, qualification, development, pedagogical activity, individual approach.

KIRISH:

Bugungi ta'lim tizimida har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shaxs kamolotida uning qobiliyatlari muhim o'rin tutadi. Qobiliyat insonning muayyan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ish olib borishini ta'minlaydigan psixologik xususiyatdir. Psixolog olim S.L. Rubinshteyn qobiliyat haqida shunday deydi: "Qobiliyat – bu shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan individual psixologik xususiyatlar yig'indisidir." Uning fikricha, qobiliyat shaxsda tayyor holda mavjud bo'lmaydi, balki faoliyat jarayonida rivojlanadi va takomillashib boradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish kelgusidagi ta'lim yo'nalishini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur maqolada qobiliyat tushunchasining ilmiy asoslari, uning turlari va pedagogik jarayondagi ahamiyati kengroq yoritiladi. Qobiliyat - bu shaxsning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga imkon beradigan individual psixologik xususiyatidir. U bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qulay sharoit yaratadi, lekin ularga tenglashtirilmaydi.

Psixolog olimlar qobiliyatlarni quyidagicha tavsiflashadi:

Qobiliyat shaxsning tug'ma va orttirilgan sifatleri asosida shakllanadi.

Har bir inson ma'lum bir sohaga nisbatan turlicha layoqat bilan tug'iladi.4

Qobiliyat muhit va tarbiya ta'sirida rivojlanadi.

Qobiliyat quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

Uzoq mashq va faoliyat jarayonida rivojlanadi;

Muayyan sharoit va muhitda ochiladi;

Har bir insonda turli darajada namoyon bo'ladi.

Qobiliyatning rivojlanish bosqichlari: 1. Layoqat – faoliyatni bajarishga moyillik va potentsial imkoniyat. 2. Qobiliyat – faoliyat jarayonida shakllangan va rivojlangan sifat. 3. Iste'dod – yuqori darajada rivojlangan qobiliyat. 4. Daho – noyob va eng yuqori darajadagi ijodiy qobiliyat.

Qobiliyatning asosiy turlari quyidagilar: Umumiy qobiliyatlar – barcha faoliyat turlarida zarur bo'ladigan qobiliyatlar (masalan, tafakkur, nutq, xotira). Maxsus qobiliyatlar – muayyan sohalarga xos qobiliyatlar (musiqa, matematika, rassomlik, sport va boshqalar) Qobiliyat tushunchasi iste'dod bilan chambarchas bog'liq. Iste'dod - bu yuqori darajada rivojlangan maxsus qobiliyat bo'lib, insonda alohida muvaffaqiyatlar keltirib chiqaradi. Boshlang'ich ta'lim tizimida qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish pedagogning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfda bolalarda quyidagi qobiliyatlar shakllantiriladi: Nutqiy qobiliyat, mantiqiy tafakkur. kreativ (ijodiy) tafakkur. muloqot qobiliyati. tasviriy san'at va musiqa qobiliyat.

O'qituvchi: o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olishi, Ularni rag'batlantirishi, Individual yondashuvdan foydalanishi zarur.

Agar bola o'z qobiliyatiga mos muhitda tarbiyalanmasa, u so'nib qolishi mumkin. Shuning uchun ota-ona va pedagoglar hamkorligi juda muhim. Lekin hozirgi kunda ota-onalar bolalarga e'tibor qaratishi juda ham ko'p uchratayapmiz.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, mashg'ulotlar, kreativ topshiriqlar yordamida bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligi oshmoqda. hozirgi kunda dars mashg'ulotlarida AKT texnologiyalaridan foydalanilmoqda. Bu esa darsning qiziqarli tashkil etilishiga hamda bolalarning qobiliyatlarini yanada nomoyon bo'lishida yordam beradi.

XULOSA:

Qobiliyat shaxs rivojida muhim rol o'ynaydi va uning kelajakdagi kasbiy yo'nalishini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Har bir insonda noyob qobiliyat mavjud bo'lib, uni erta aniqlash va to'g'ri yo'naltirish zarur. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning shaxs sifatida kamol topishiga erishiladi. O'qituvchining pedagogik mahorati va individual yondashuvi bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qobiliyatlarni rivojlantirish orqali jamiyat uchun yetuk, ijodkor va faol shaxslarni tarbiyalash mumkin. Demak, qobiliyatni rivojlantirish uchun bolalarga faoliyat jarayonida sharoit yaratish, ularning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va ularga qulay bo'lgan narsalarni yaratib berish va pedogog sifatida ularga ko'maklashish muhimdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimova V.M. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent, 2020.
2. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2018.
3. Mavlonova R. Pedagogika. – Toshkent, 2021.
4. Sodiqova N. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2019.
5. Abdullayeva S. Shaxs psixologiyasi. – Samarqand, 2020.